

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DIPLOMATIK MATNLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mirzamatova Ziyoda Abdullayevna

Farg'ona Davlat Universiteti

Chet tillari fakulteti

“Filologiya va tillarni o'qitish” kafedrası o'qituvchisi

E-mail: ziyoda_abdullayevna@mail.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida diplomatik matnlarning leksik-semantik, strukturaviy, stilistik va lingvokulturologik xususiyatlari haqida ilmiy-nazariy mulohazalar olib borilgan. Shuningdek, maqolada diplomatik matnlarning leksik-stilistik jihatdan tartiblashi borasida ham amaliy tahlillar olib borilgan. Bunda ingliz va o'zbek tillarida diplomatik matnlarning o'xshashlik va farqli tomonlari ham qiyosiy-leksik jihatdan yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz va o'zbek tillari, diplomatik matnlar, leksik-semantik, strukturaviy, stilistik va lingvokulturologik xususiyatlari, ilmiy-nazariy mulohazalar, leksik-stilistik, o'xshashlik va farqli tomonlari, qiyosiy-leksik.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мирзаматова Зиёда Абдуллаевна

Ферганский государственный университет

Факультет иностранных языков

Преподаватель кафедры “Филология и преподавание языков”

E-mail: ziyoda_abdullayevna@mail.ru

Аннотация: В данной статье даны научно-теоретические комментарии о лексико-семантических, структурных, стилистических и лингвокультурных особенностях дипломатических текстов на английском

и узбекском языках. Также в статье проведен практический анализ лексико-стилистической классификации дипломатических текстов. При этом выделяются сходства и различия дипломатических текстов на английском и узбекском языках со сравнительной и лексической точки зрения.

Ключевые слова: английский и узбекский языки, дипломатические тексты, лексико-семантические, структурные, стилистические и лингвокультурные особенности, научно-теоретические соображения, лексико-стилистические, сходства и различия, сравнительно-лексические.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF DIPLOMATIC TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Mirzamatova Ziyoda Abdullayevna

Fergana State University

Faculty of foreign languages

Teacher of the “Philology and Language Teaching” department

E-mail: ziyoda_abdullayevna@mail.ru

Abstract: In this article, scientific-theoretical comments were made about the lexical-semantic, structural, stylistic and linguocultural features of diplomatic texts in English and Uzbek languages. Also, in the article, a practical analysis of the lexical-stylistic classification of diplomatic texts was carried out. In this, the similarities and differences of diplomatic texts in English and Uzbek are highlighted from a comparative and lexical point of view.

Key words: English and Uzbek languages, diplomatic texts, lexical-semantic, structural, stylistic and linguistic-cultural features, scientific-theoretical considerations, lexical-stylistic, similarities and differences, comparative-lexical.

KIRISH

Jahon miqyosida bugungi kunda terminologiya tizimida diplomatik terminlarning o'рни muhim ahamiyatga ega kasb etmoqda. Zero, jahon hamjamiyatining va mamlakatlararo diplomatik munosabat hamda diplomatik muloqotga bo'lgan kuchli talab ushbu soha terminologiyasining jadal sur'atlarda taraqqiy etishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Sohaviy terminologik tizimlar orasida o'ziga xoslik kasb etuvchi diplomatiya terminlari va diplomatiyaga oid til birliklari jahon tilshunosligida keng o'rganilgan, diplomatiya tushunchasi turli adabiyotlar, manbalar, umumiy va maxsus lug'atlarda tavsiflangan. Ammo bugungi dunyoning siyosiy manzarasi diplomatik munosabatlarga oid turli tarixiy va zamonaviy manbalarni lingvistik nuqtai nazardan tilshunoslikdagi eng so'nggi paradigmalar asosida tadqiq qilish, diplomatik munosabatlar va diplomatik muloqotga oid leksik birliklar har tomonlama ilmiy tahlil qilingan tadqiqot natijalarini xalqaro maydondagi muloqot jarayoniga tatbiq qilish zaruriyatini ham yuzaga keltirmoqda.

O'zbek tilshunosligida bu masalada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ammo til ijtimoiy hayot bilan bog'liq tarzda taraqqiy etib borishini hisobga olsak, lug'atlar yaratish ishining takomillashtirilishi, lug'at bazasining boyitilib, yangilanib borishi dolzarbligicha qolaveradi. Zotan, "har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak" ekan, sohaviy bilimlarni egallashning asosiy manbasi - terminografiyaga oid tadqiqotlarga ehtiyoj ortib boraveradi. Shu jihatdan muayyan soha terminlarining leksikografik xususiyatlariga maxsus bag'ishlangan ishlarning kamligi ham ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tilshunosligida terminologiya hamda leksikografiya, xususan, terminografiya sohasi bo'yicha, umumiy filologik hamda sohaviy lug'atlarning o'рни va ahamiyati, ularni yasalishi, terminologik birliklarning soha bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, shuningdek, ularni umumiy

filologik yoki maxsus lug'atlarda keltirish, birliklarni izohlash bo'yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo'lga kiritilgan[2].

Davlatlarning diplomatik faoliyatining tabiati va shakllari ba'zi olimlar va diplomatlarga diplomatiyani aniqlashga imkon berdi. "Qanday qilib davlatlar hukumatlari o'rtasida rasmiy aloqalarni o'rnatishda aql va xushmuomalalikni qo'llash" (E.Satou[5]), "Tashqi fan davlat aloqalari yoki tashqi ishlar va tor doirada - ilm-fan yoki muzokaralar san'ati" (G.Martens), "Ilm-fan davlatlar munosabatlaridagi o'zaro manfaatlar yoki o'zaro san'at xalqlarning manfaatlarini va aniqroq ma'noda - fanni muvofiqlashtirish yoki muzokaralar san'ati"[6].

Zamonaviy terminshunos tadqiqotchilarning fikriga ko'ra (N.V.Podolskaya, A.V.Superanskaya, N.V.Vasileva, V.P.Danilenko, V.M.Gryaznova, T.L.Kandelaki va boshqalar), hozirgi zamon terminologiyasi sun'iy ravishda shakllangan leksik qatlam bo'lib, uning har bir birligi foydalanish uchun ma'lum cheklovlarga va mavjudligi va rivojlanishi uchun ma'lum shart-sharoitlarga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

"Diplomatiya" atamasini birinchi bo'lib Gotfrid ishlatgan. Hozirgi kunda "diplomatiya", deyarli boshqa atama kabi, turli xil narsalarni anglatadi, jarayonga puxta o'ylangan va taktik yondashuv o'rtasidagi rasmiy munosabatlarni saqlab qolish mustaqil davlatlar hukumatlari, ba'zan mustaqil bo'lmagan davlat hududlarining ayrim qismlari bilan, shuningdek hukumatlar va xalqaro institutlar tomonidan qo'llaniladi. Qisqasi, diplomatiya mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish uchun tinchlik vositalari bo'lib xizmat qiladi.

Diplomatiya haqidagi mashhur latifalardan biri bu - eng qadimgi kasblardan biri bo'lib, ota-bobolarimiz boshqa qabiladan kelgan xabarchi ularga olib kelgan xabarni yoyishdan ko'ra tinglash yaxshiroq ekanini tushunganlarida paydo bo'lgan deyishadi. Garchi, albatta, shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida aytib o'tilgan ajdodlar ham xabarchini tinglab, keyin uni xotirjam va tushunarli

iste'mol qilishlari mumkin edi. Diplomatiya sivilizatsiyaning eng qadimgi yutuqlaridan biri ekanligi shubhasiz[3].

Diplomatiya tushunchasi, kelib chiqishi va rivojlanishi Bobil, Gretsiya, Rim, Xitoy, Hindiston va boshqalar qadimgi davlatlar bir-birlariga yuborgan turli xil xabarchilari, muzokarachilar, kuzatuvchilar va ularning boshqa vakillariga borib taqaladi. Ushbu shaxslarning vazifalari shaxsiy edi, yuborilgan xabarlar, xatlar va sovg'alarni ularning hukmdorlariga topshirish, qamoqqa olish to'g'risida muzokaralar olib borish, muayyan xalqaro kelishuv (ittifoq, tinchlik, sulh, ekstraditsiya va boshqalar)ni tuzish, qabul qiluvchi mamlakat bilan munosabatlarni yaxshilash, mamlakatdagi muhim tadbirlarda qatnashish, turar joy (hukmdorning taxtga o'tirishi, uning to'y, dafn marosimi va boshqalar)ni o'z ichiga olgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

“Diplomatiya” so'zi yunoncha “diplom” so'zidan kelib chiqqan - qadimgi Hellas yerlarida ular o'zlarining vakolatlarini maxsus tasdiqlash uchun elchilarga ikki qavatli taxtalarga yozilgan matnlarni berganlar. Garchi diplomatiya ijtimoiy hayotning o'ziga xos sohasi sifatida qadim zamonlardan beri mavjud bo'lsada, tashqi aloqalar sohasidagi davlat faoliyatini belgilash uchun bu so'z G'arbiy Evropada faqat 18-asr oxiridan boshlab qo'llanila boshlandi. Diplomatiya so'zi ostida bugungi kunda davlat rahbarlari, hukumatlar, tashqi aloqalarning maxsus organlari va ularning rasmiy faoliyatini tushunish odatiy holdir.[4]

Muzokaralarni amalga oshirish bo'yicha xorijiy vakolatxonalar bular - repiski, harbiy bo'lmagan amaliy tadbirlar tashqi siyosiy maqsadlarni himoya qilish, davlat huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun hal qilinadigan vazifalarning o'ziga xos shartlari va xususiyatlarini hisobga olgan holdagi muassasalar va chet el fuqarolari hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida siyosiy va diplomatik matnlarni o'rganishga bo'lgan katta lingvistik qiziqishlar mavjud bo'lib, keying bir necha asrlar davomida jahonda globallashuv sur'atlarining kuchayishi bilan dunyoning

ko'plab mamlakatlarida muzokaralar paytida o'z pozitsiyasini eng aniq ifoda etish uchun o'z tilining siyosiy va diplomatik terminologiyasini takomillashtirish yoki rivojlantirish zarurati paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan diplomatik va siyosiy leksikonlarda yagona standartlarga eng yaqin bo'lgan variantlar paydo bo'ldi.

Diplomatik matnlar, o'zlarining o'ziga xos leksik xususiyatlarga ega bo'lgan bir soha hisoblanadi. Ular diplomatik sohaning xususiyatlarini, rivojlanishini va o'zgarishlarini ifodalaydi. Bu maqolada, diplomatik matnlarning leksik xususiyatlari mavzusini ko'rib chiqish uchun, ularning tarkibiy elementlari va ularni tushuntirishda muhim bo'lgan nuqtalarga e'tibor bera olamiz.

Diplomatik hujjatlar o'ziga xos leksik-uslubiy, grammatik, morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega.

Semantik nuqtai nazardan "atama" tushunchasini aniqlashda tegishli til birliklarining ularning leksik ma'nosiga bog'liqligi, shuningdek, yangi terminologiyalarga xos bo'lgan terminologik foydalanish (alohida so'zlar bilan birga) va iboralar imkoniyati hisobga olinadi[7].



***Senate of the Supreme Assembly
of the Republic of Uzbekistan***

MA_001.0003

Senate of the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan presents its compliments to the State Duma of the Russian Federation and states the following.

In order to further strengthen the inter-parliamentary cooperation between two countries, offers a 2-month bilateral experience exchange program in May-June of this year. Schedule of program members is provided on the basis of allonge.

The Senate of the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan has the honor to renew to the State Duma of the Russian Federation the assurances of its highest consideration.

To the State Duma of the



Ushbu keltirgan misolimizda ko'rinib turibdiki, diplomatic terminlarning aniq ma'noga egaligini hamda har bir so'zning asl ma'noda qo'llanilmoqda. Xususan, diplomatik matnning leksik xususiyatlarini o'zida ask ettirgan. Matnning ma'nosi esa, aniq bir maqsadga yo'naltirilganini matn so'zlarining leksik ma'nosi ochib bermoqda.

Diplomatik matnlarning muhim leksik jihatlaridan biri sifatida so'zlarning aniq bir tushunchaga ega ekanligi bilan boshqa leksik tushunchalardan ajralib turadi. Bunda turli ko'chma ma'nodagi so'zlar ishtirok etmaydi, shuningdek, so'zlarda turli bo'yoqdorlik ham qo'llanilmaydi. Matnning asosiy maqsadi esa aniq so'zlar bilan ko'rsatilib beriladi.



Oliy Majlis Senati

O'zbekiston Respublikasi

MA_001.0003

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasiga o'z maqtovlarini taqdim etadi va quyidagilarni ta'kidlaydi.

Ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida joriy yilning may-iyun oylarida ikki oylik ikki tomonlama tajriba almashish dasturini taklif qilmoqda. Dastur a'zolarining jadvali allong asosida taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasiga o'zining yuksak e'tibor kafolatlarini yangilash sharafiga muyassar bo'ldi.

Davlat Dumasiga
Rossiya Federatsiyasi



01.01.2002

Ushbu keltirilgan diplomatik matnda matnlarning stilistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bunda mamlakatga tegishli bo'lgan har qanday tashkilot, jamoat tuzilmalari hamda murojaat qilinadigan davlat organlarining nomlari katta bosh harf bilan yozishi shart.

Leksik-uslubiy jihatdan diplomatik yozishmalar o'z atamalar tizimiga, qoliplashgan turg'un birikmalariga, sinonim, antonimlar kabi turli ifoda vositalariga ega. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, xizmat xatlari hissiy-bo'yoqdor so'zlardan xoli bo'lishi talab etilsa, diplomatik yozishmalar, aksincha, hissiy-bo'yoqdor so'zlarga boyligi, maqtov va iltifot so'zlariga egaligi bilan ajralib turadi. Maqtov so'zlari diplomatik yozishmalarning eng asosiy turi bo'lmish nota-bayonotlarning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning oz-ko'p qo'llanishiga ko'ra ushbu hujjatlar ma'lum bir turlarga ham ajratiladi.

Chunonchi, notalarda *“Janobi oliylari”*, *“Hurmatli janob”*, *“Sizga bo'lgan yuksak hurmatimga ishonch bildirgaysiz”* kabi hurmat-e'zoz so'zlarining ko'p qo'llanishi unga do'stonalik, oz qo'llanishi esa rasmiy tus beradi.

Diplomatik yozishmalarda sinonimik qatorning ko'proq uslubiy neytral so'zlari emas, balki ijobiy hissiy-bo'yoqli va kitobiy uslubga xos so'zlari ko'p qo'llanadi. Chunonchi, bildiraman so'zi o'rnida *izhor etaman, vaqt o'rnida fursat, bir marta o'rnida bir bora, mansab o'rnida lavozim, rahmat o'rnida tashakkur, xursand* so'zi o'rnida mamnun so'zlari qo'llanadi.

The Prime Minister of the
Republic of Uzbekistan

The Prime Minister of the Russian Federation
Mixail Vladimirovich Mishustin

Dear, Mikhail Vladimirovich Mishustin

Prime Minister of the Republic of Uzbekistan, Prime Minister of the Russian Federation Mixail Vladimirovich Mishustin to pay an official visit to the Republic of Uzbekistan on December 5 of this year.

I hope this visit further strengthen bilateral cooperation.



**Prime Minister of the
Republic of Uzbekistan**

Abdulla Aripov

Bu o'rinda shuni qayd etib o'tish kerakki, ushbu hujjatlar, asosan, o'zaro yozishmalardan xatlardan iborat bo'lgani uchun ularni diplomatik yozishmalar deb atash ma'qulroq ko'rinadi.

Shaxsiy va verbal notalarga xos umumiy xususiyatlar quyidagilar:

1. Notalar yuqori qismiga davlatning nomi yozilgan va davlat gerbining tasviri tushirilgan eng toza, sifatli qog'ozga yoziladi.

2. Qog'ozning yuqori o'ng burchagiga nota yo'llayotgan davlat poytaxtining nomi va sana yoziladi.

3. Notaning hajmidan qat'i nazar, birinchi betning pastki chap tomoniga u yo'llanayotgan davlat nomi to'liq yoziladi, xatjild ustida ham xuddi shu manzil ko'rsatiladi.

Hozirga vaqtda davlatlararo aloqalarda diplomatik yozishmalarning quyidagi turlari faol qo'llanmoqda:

1. Nota va bayonotlar.
2. Rasmiy xatlar.
3. Ilova xatlar.
4. Yarim rasmiy shaxsiy xatlar (nomalar).
5. Esdalik yozishmalari.
6. Diplomatik (protokol) qaydnomalar.
7. Memorandumlar.

Demak, diplomatik yozishmalarda matnlarning stilistik va leksik ko'rinishlari hujjat turiga qarab turlicha ko'rinishda bo'ladi. Quyida shaxsiy nota turidan na'muna keltiramiz.

Shaxsiy nota bevosita davlat boshliqlari yoki yuqori mansabdor shaxslar o'rtasidagi diplomatik yozishmadir. Bunda ushbu mansabdor shaxslarning lavozim darajalari teng bo'lishi talab qilinadi. Shuni alohida qayd etish kerakki,

nota va bayonotlarda davlatlarning, lavozim larning nomlanishida yo'l qo'yilgan har qanday xato yoki kamchilik mensimaslik yoki bepisandlik alomati sifatida qabul qilinadi va mamlakatlarning o'zaro aloqasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun diplomatik hujjatlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar har bir davlatga aloqador an'ana va nomlanishlarni aniq bilishi talab qilinadi.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatik matnlarni o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, diplomatik matnlardagi so'zlarning stilistik va semantik qurilishi alohida ahamiyatga egadir.

Diplomatik soha leksikasi murakkab lisoniy tizimdir. Buning bir necha isboti ham mavjud.

Birinchidan, diplomatik sohani anglatuvchi so'zlar mazkur tizim ichida turli mavzuiy guruhlariga bo'linib ketadi.

Ikkinchidan, bunday so'zlar so'z yasalish nuqtai nazardan turlicha qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Uchinchidan esa, semantik, stilistik jihatdan bunday so'zlar turli qirralarga egadir.

Diplomatiya tushunchasining o'zbek tilshunosligining bir qancha manbalarida keltirilgan turli ta'riflariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda diplomatiya tushunchasining mazmuni keltirilgan bo'lsa ham lekin to'liq mohiyati keltirilmagan.

O'zbek tilining ikki jildlik izohli lug'atida diplomatiya termini quyidagicha tavsiflangan: "Diplomatiya - bir davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirishda, chet mamlakatlar bilan turli ko'rinishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqa qilish sohasidagi faoliyatidir"¹.

Yuqoridagi keltirilgan ta'riflarning bir xil ko'rinishda ekanligi bu sohadagi ilmiy izlanishlar natijasini mukammaligini anglatadi. Shu bilan birgalikda davlatning bir-biri bilan ijtimoiy-siyosiy aloqa o'rgatishda yuzaga

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I т. З.Мағруфов таҳрири остида – М: Русский язык, 1981. – Б. 228.

keladigan munosabatlarni rivojlanishi ortida diplomatik hujjatlarni aniq hamda matnlarni tuzilish jihatidan xatosizligi ham mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллиги муносабати билан сўзланган нутқ / Ҳалқ сўзи, № 218-сон, 22.10.2019.

2. Малюкова Е.В. Юридическая терминология в системоцентрическом и антропоцентрическом аспектах: Автореф. дис. канд. филол. наук. 2005. 18с.; Лутцева М.В. Лексикографическое описание юридической терминологии в неспециальной сфере использования: Автореф. дис. канд. филол. наук. Ярославль, 2008. 15с.; Хасина Л.И. Место и специфика глагольных лексем и словосочетаний в отраслевой терминосистеме: На материале русской и английской юридической терминологии: дис. канд. филол. наук. - Кемерово, 2003. - С.169; Смирнова О.М. Филологическое правотолкование: Автореф. дис. канд. юрид. наук. - Казань, 2007. - 16 с.; Nielsen, S. (2015). Legal Terms in General Dictionaries of English: The Civil Procedure Mystery. Lexikos. 25. 246-261. Попова Л.В. Русская юридическая терминология XVIII века в структурно-семантическом и лингвокультурологическом аспектах: Автореф. дис. канд. филол. наук. Челябинск, 2007. 16с.; Khizhnyak S. P. Affixed terms in cognitive categorization of the legal picture of the world and in LSP teaching / Studies in Logic, Grammar and Rhetoric. 2018. №.53. P.105-117; Петрашова Т.Г. Английская терминология предметной области: Социальная работа и ее лексикографическое описание: Автореф. дис. канд. филол. наук. -

Иваново, 2006. - 16 с.; Stephen C. Mouritsen, The Dictionary Is not a Fortress: Definitional Fallacies and a Corpus-Based Approach to Plain Meaning, 2010 BYU L. Rev. 1915 (2010). O'.Q.Tolipov, D.Razzoqov, Q.Bobojonova Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limidan Davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish. Metodik qo'llanma. O'zPFITI laboratoriyasi. T.: 2000.

3. B.D.Krivokapich. Diplomatik tushunchasi bo'yicha qo'llanma. M., 1997 yil. 65-66-sahifa

4. The New Zealand Qualifications Framework - New Zealand Qualifications Authority. New Zealand Government. May 2016. Retrieved 12 March 2023.

5. Сато Эйсаку // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / под ред. А.М.Прохоров - 3-е изд. - М.: Советская энциклопедия, 1969.

6. Satou E. Diplomatik amaliyot bo'yicha qo'llanma. M., 1947 yil. 27-sahifa.

7. Алексеева, Л. М. Проблемы термина и терминообразования [Текст] / Л. М. Алексеева. – Пермь, 1998. – 120 с

8. Done at Vienna on 18 April 1961. Entered into force on 24 April 1964. United Nations, Treaty Series, vol. 500, p. 95. Vienna Convention on Diplomatic Relations Done at Vienna on 18 April 1961. https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf

9. For the purpose of the present Convention, the following expressions shall have the meanings hereunder assigned to them: https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf

10. Толикина Е.Н. Некоторые лингвистические проблемы изучения термина // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. - М., 1970. - С. 53–67.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 624.

12. Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 9.; Арипова А. Нотиқлик нутқининг лисоний-услугий

воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. –186 б.;

Тўрахўжаева А. “Дипломатия” архисемали лексемаларнинг семантик таҳлили. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари Республика илмий ва амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2010. – Б. 75.